IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

UYG‘UR XALQ TABOBATINING DINIY VA TARIXIY ASOSLARI

Toshkent tibbiyot akademiyasi
Ijtimoiy fanlar kafedrasi
Imiy rahbar katta o`qituvchi
Ro`ziyev Navro`z Ixtiyorovich
1-son Davolash fakulteti 2-kurs talabasi
Baratova Charos Xabibulla qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada uyg‘ur xalq tabobatining shakllanishi, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda turli madaniyatlar va diniy qarashlar bilan integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Markaziy Osiyoning voha hududlarida shakllangan qadimiy tibbiy bilimlarning yunon, hind, xitoy hamda arab-fors tibbiyot maktablari ta’sirida rivojlangani yoritilgan. Shuningdek, uyg‘ur tibbiyotining asosini tashkil etuvchi to‘rt suyuqlik nazariyasi, kasalliklarning kelib chiqish mexanizmlari va davolash usullari ko‘rib chiqilgan. Maqolada dorivor o‘simliklar, xususan Cistanche o‘simligining qo‘llanilishi, uning shifobaxsh xususiyatlari hamda diniy-falsafiy qarashlar bilan bog‘liqligi tahlil etiladi. Bundan tashqari, Islom dinining davolash jarayoniga ta’siri va Hazbay kabi tabiblarning ilmiy merosi asosida uyg‘ur tabobatining o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются формирование и этапы развития уйгурской народной медицины, а также её интеграция с различными культурными и религиозными традициями. Освещается влияние греческой, индийской, китайской и арабо-персидской медицинских школ на развитие медицинских знаний в оазисах Центральной Азии. Особое внимание уделено гуморальной теории, лежащей в основе уйгурской медицины, механизмам возникновения заболеваний и методам их лечения. В статье также анализируется применение лекарственных растений, в частности растения Cistanche, его лечебные свойства и связь с религиозно-философскими представлениями. Кроме того, рассматривается влияние ислама на медицинскую практику и вклад таких врачей, как Хазбай, в развитие уйгурской медицины.

Abstract: This article examines the formation and developmental stages of traditional Uyghur medicine, as well as its integration with various cultural and religious traditions. The study highlights the influence of Greek, Indian, Chinese, and Arab-Persian medical systems on the evolution of medical knowledge in the oasis regions of Central Asia. Special attention is given to the humoral theory that underlies Uyghur medicine, including the mechanisms of disease development and treatment methods. The article also analyzes the use of medicinal plants, particularly Cistanche, its therapeutic properties, and its connection with religious and philosophical concepts. Furthermore, the role of Islam in medical practice and the contribution of physicians such as Hazbay to the development of Uyghur medicine are discussed.

Kalit so`zlar: Uyg‘ur tibbiyoti, an’anaviy tabobat, humoral nazariya, dorivor o‘simliklar, Cistanche, Islom va tibbiyot, Ipak yo‘li, integratsiya, tabiblar, Markaziy Osiyo

Kirish

Markaziy Osiyo hududi qadimdan turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va diniy qarashlar chorrahasi sifatida shakllangan bo‘lib, bu jarayon ayniqsa sog‘liqni saqlash va tabobat tizimlarining rivojlanishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu hududda yuzaga kelgan va asrlar davomida takomillashib borgan uyg‘ur xalq tabobati nafaqat amaliy davolash usullari, balki chuqur falsafiy va diniy qarashlarga asoslangan murakkab tibbiy tizim sifatida alohida e’tiborga loyiqdir.

Uyg‘ur tibbiyoti o‘zining shakllanish jarayonida qadimgi Sharq va G‘arb tibbiy maktablari — yunon, hind, xitoy hamda arab-fors tibbiyot an’analari bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ularning

ilmiy va nazariy yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshgan madaniy va ilmiy almashinuvlar bu tizimning boyishi va takomillashishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Bundan tashqari, uyg‘ur tabobatining o‘ziga xos jihati shundaki, u faqat jismoniy kasalliklarni davolash bilan cheklanmay, balki insonning ruhiy holati, diniy e’tiqodi va ichki muvozanatini ham davolash jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraydi. Shu sababli ushbu tibbiyot tizimida dorivor o‘simliklar, parhez, jismoniy muolajalar bilan bir qatorda diniy amallar, duolar va ruhiy ta’sir usullari ham keng qo‘llanilgan.

Mazkur maqolada uyg‘ur xalq tabobatining shakllanish bosqichlari, uning turli madaniyatlar bilan integratsiyalashuvi, asosiy nazariy qarashlari hamda dorivor o‘simliklar, xususan Cistanche kabi giyohlarning qo‘llanilishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tizim rivojiga hissa qo‘shgan tabiblar faoliyati va dinning tibbiyotga ta’siri ham keng yoritiladi.

Asosiy qism

Markaziy Osiyoda, xususan Taklamakon cho‘li va uning atrofidagi suvga boy bo‘lgan vohalarda – Qoshg‘ar, Turfon, Kucha va Hotan hududlarida qadimdan yashovchi aholi tibbiyot bilan faol shug‘ullangan va bu xalqlar To‘qiz O‘g‘uz, Tocharlar, Sakalar, Vusunlar kabilarni tashkil etgan. Hududning asosiy keltirilgan etnik aholisi sifatida esa hozirgi uyg‘urlar ya'ni To‘qiz Og‘uz aholisi keltirilgan.

Bu xalqlar 2500 yildan ortiq tarixga ega. Xalqlar rivojlanishi negizida ularning diniy va dunyoviy bilimlari rivojlana borgan. Xalqlar rivojlanishida ehtiyojiy moslanish sifatida tug‘ulgan va rivojlana borgan yo‘nalishlardan biri sifatida umumiy yashovchi xalqlar negizida qadimiy tibbiyoti shakllana borgan. Tibbiyotning shakllanishi uch bosqichda borgan deya etirof etilgan. Bunda birinchi bosqich dastlabki ibtidoiy bosqich – bunda og‘riqni kamaytirish va hayotni saqlab qolish asosiy maqsad bo‘lgan va davolash uchun tajriba yo‘li bilan o‘simliklar, hayvon mahsulotlari va oddiy usullarni qo‘llagan. Ikkinchi bosqich nazariyot shakllanish bosqichi – tibbiyot asta-sekin falsafa bilan bog‘lana boshlaydi,




Figure 7. Xi-Zhou-Xu-Ming Decoction recorded in *Important Formulas Worth a Thousand Gold Pieces* (*Qiān Jīn Yào Fāng*).

Inson tanasi va kasalliklar haqida umumiy tushunchalar paydo bo‘ladi. Muvozanat nazariyalari organizm tuzilishi haqidagi qarashlar shakllanadi.

Uchinchi bosqichda esa integratsiya bosqichi, bunda o'troq xalq boshqa xalqlar bilan aloqada bo‘lishi natijasida ma'lumotlar almashinishi kuzatiladi.

Uyg‘ur tibbiyoti Sharq va G‘arb madaniyatlari chorrahasida shakllangan, bu esa ularning kuchli integratsiyalashuviga qulay sharoit yaratgan. Ayniqsa, Ipak yo‘li orqali turli xalqlarning tibbiy bilimlari almashinuvi katta rol o‘ynagan. Uning rivojlanishida Qadimiy Xitoy tibbiyoti asosiy nazariy poydevor sifatida rol o‘ynaydi. Qadimiy Xitoy tibbiyotining uyg‘ur tabobatiga ta’siri amaliy misollar orqali ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, mashhur “Ming oltin qimmatli dorivor formulalar” (Qian Jin Yao Fang) asarida qayd etilgan Si-Jou-Syu-Min qaynatmasi tana a’zolaridagi uyushish va og‘riqlarni davolashda qo‘llanilgan. Ushbu damlama tarkibiga efedra (mahuang), zanjabil, dolchin kabi

dorivor o‘simliklar kirib, ularni tayyorlash usullari ham aniq ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, “Yangi tahrirlangan materiya medika” (Xin Xiu Ben Cao) asariga Shinjon hududidan keltirilgan 100 dan ortiq dorivor o‘simliklarning kiritilishi ushbu mintaqaning tibbiyotdagi ahamiyati yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu esa uyg‘ur tabobati va Xitoy an’anaviy tibbiyoti o‘rtasidagi chuqur tarixiy va ilmiy aloqalarni tasdiqlaydi.
Ushbu davr tibbiy amaliyotlari tasviriy manbaalarda ham o`z tasdig`ini topgan. Masalan, Dunhuang g‘orlaridagi devoriy surat: unda qadimiy davrda bemorga tibbiy yordam ko‘rsatish, dori tayyorlash va davolash jarayoni tasvirlangan bo‘lib, bu Sharq tibbiyoti, jumladan uyg‘ur va xitoy tabobati o‘rtasidagi tarixiy bog‘liqlikni aks ettiradi.
Bundan tashqari, Hind tibbiyoti(Ayurveda)dan – organizm muvozanati haqidagi tushunchalar, Arab va Fors xalqlaridan esa dorishunoslik va klinik tajriba ilmlari ham kirib kelgan.



Figure 2. Part of the mural named *Futian Sutra Mural* in Cave 296 of the Dunhuang Mogao Grottoes.[26]
ıe lower part of the mural depicts the situation that a patient with severe diseases is supported by two people, and one of them help
. Behind them, someone is preparing the medicine.

Ular joylashgan vohalar hududida suv manbayi va unumdor yerlar mavjud bo‘lganligi sababli, shifobaxs o‘simliklar yetishtirish va ularni davolashda qo‘llash uchun juda qulay geolokatsiya bo‘lgan deyiladi.
Bu hudud aholisi – So‘g‘diy, Sanskrit va Parakrit yozuvlarida tibbiy matnlar yozgan va grek tibbiyoti bilan birinchi aloqlarni shu davrda o'rnatgan.
Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda esa Buddizm va Hindiston shimolidagi imperiyalardan tibbiy bilimlar kirib kelgan.
Buning ta'siri ostida miloddan avvalgi 3-2 asrlarda va milodiy 1-7 asrlarda Buddizm tufayli tibbiyotni o‘rganish va davolashda ruhiy elementlar, budda matnlari va duolaridan foydalanish amaliyoti shakllangan.

Uyg‘ur tibbiyotida inson tanasi to‘rt asosiy suyuqlik (qon, balg‘am, sariq safro va qora safro) va ularning temperamenti asosida tushunilgan.
Bu ilm Uyg‘urlarga fors manbalari asosida kirib kelgan va Gippokrat tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar hisoblanadi. Bunda sariq safro olov unsuri bilan bog‘lanib, faoliyat va g‘azabni, qora safro esa tuproq unsuri bilan bog‘lanib, g‘amginlik va o‘ylanuvchanlikni ifodalagan. Safro hususiyatiga ko‘ra, inson harakteri shakllana boradi deb ishonilagan. Bunga ko‘ra, sariq safro

jigar tomonidan ishlab chiqariladi va ovqat hazm qilishda ishtirok etadi. Organizmda ko‘payib ketsa, tana harorati ko‘tarilishi, achchiq ta'm va tez g‘azablanishga olib keladi , qora safro esa taloq bilan bog'lanib, organizmda to‘planib qolsa, depressiya, g‘amginlik vq tushkun kayfiyatni keltirib chiqarishiga ishonilgan.
Kasalliklar bu balans buzilishi sifatida talqin qilingan, va ularni davolash uchun o‘simliklardan, dieta, massaj va boshqa fizik terapiyalardan foydalanganlar. Dorilar kasallik xususiyatiga ko‘ra tanlangan. Masalan, issiq kasallikka – sovituvchi vosita.

Uyg'ur tibbiyotining rivojlanishida Islom dini muhim rol o‘ynagan. Ko‘plab shifokorlar — Hezimchi yoki Temchilar, davolash jarayonida Qur’ondan oyatlarni o‘qish, duolar qilish va ruhiy maslahat berish kabi usullarni qo‘shgan, bu esa jismoniy va ruhiy sog‘liqni birlashtirishga yordam bergan. Masalan, X asrda Arab-Fors tibbiyotining ta’siri bilan, oazis shifokorlari Unani tizimini o‘zlashtirib, o‘simliklarni dozalash va tayyorlashda ilmiy yondashuvni kuchaytirgan.



Jismoniy va nafaqat ruhiy kuchni tiklash maqsadida esa Cistanche o‘tidan foydalanganlar. Uni xitoy aholisi keyinchalik sahro jengsheni deb ham atashgan.
Bu o‘t dastlab Arablar tomonidan qo'llanilgan va «Thanoon» nomi bilan atalgan. Islom madaniyatida tabiyatdagi har bir o‘simlik Allohning shifo manbayi sifatida ko‘rilgani bois, Thanoon ham buyrak va quvvatni tiklovchi vosita sifatida qadrlangan.
Islom dini kirib kelgan Shimoliy Afrika va Arabistonning ayrim hududlarida u erkaklik quvvatini oshiruvchi tabiiy ne'mat deb hisoblangan. Bu Islomiy an'analarda oilaviy salomatlikni saqlashga xizmat qiluvchi foydali giyoh sifatida talqin etilgan.
Uyg‘ur tibbiyoti shakllanishi va rivojlanishida ko‘plab tabib va olimlar muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, Tarim daryosi hududidagi Hazbay nomli shifokor nomi alohida tilga olinadi, chunki u miloddan avvalgi IV asrdayoq 300 dan ortiq dorivor o‘simlik va preparatlarni tasvirlab, tibbiyot tarixida muhim ilmiy asos yaratgan.
Hazbay "Herbs by Hazbay" kitobini yozgan, unda 312 turdagi dorivor o‘simliklar, ularning ishlatilish usullari, qo‘llanadigan kasalliklar va dori miqdorlari aniq ko‘rsatilgan. Shu kitob orqali Grek shifokori Flatu Hazbay bilan shaxsan tanishib, dorivor giyohlarni va o‘tlarni sinovdan o‘tkazgan.

Shunday qilib, uyg‘ur tibbiyoti asrlar davomida turli madaniyatlar, diniy qarashlar va ilmiy yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan murakkab va mukammal tizim hisoblanadi. Unda nafaqat dorivor o‘simliklar, balki insonning ruhiy holati, temperamentlari va tashqi muhit omillari ham chuqur hisobga olingan. Ayniqsa, Cistanche kabi dorivor o‘simliklarning qo‘llanilishi bu tizimda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni diniy-falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashtirishning yorqin namunasi hisoblanadi. Tarixiy manbalarda keltirilgan Hazbay kabi tabiblarning ilmiy merosi esa uyg‘ur tibbiyotining nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, uyg‘ur xalq tabobati bugungi kunda ham o‘zining ilmiy, tarixiy va madaniy ahamiyatini saqlab qolgan noyob tibbiy tizim sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, uyg‘ur xalq tabobati Markaziy Osiyoda shakllangan eng qadimiy va murakkab tibbiy tizimlardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi turli madaniyatlar, ilmiy qarashlar va diniy e’tiqodlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida yuzaga kelgan. Qadimgi voha hududlarida yashagan xalqlarning tajribaviy bilimlari dastlabki tibbiy asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, keyinchalik yunon, hind, xitoy va arab-fors tibbiyot maktablari bilan integratsiyalashuv bu tizimni yanada boyitgan va nazariy jihatdan mukammallashtirgan.

Uyg‘ur tibbiyotining o‘ziga xosligi shundaki, unda inson organizmi faqat biologik tizim sifatida emas, balki ruhiy, ijtimoiy va kosmik muvozanat bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. To‘rt suyuqlik nazariyasi asosida kasalliklarning kelib chiqishi va davolash usullarining aniqlanishi, shuningdek, dorivor o‘simliklar, parhez, massaj va boshqa muolajalar orqali muvozanatni tiklashga intilish ushbu tizimning ilmiy-falsafiy asosini tashkil etadi.

Bunda din, xususan Islom dini muhim o‘rin tutib, davolash jarayoniga ruhiy poklanish, duolar va ilohiy shifo tushunchalarini olib kirgan. Bu esa uyg‘ur tabobatini nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikni ham qamrab oluvchi yaxlit tizimga aylantirgan.

Shuningdek, Cistanche kabi dorivor o‘simliklarning qo‘llanilishi tabiat resurslaridan samarali foydalanish va ularni diniy-falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashtirishning yorqin namunasi hisoblanadi. Tarixiy manbalarda qayd etilgan Hazbay kabi tabiblarning ilmiy merosi esa ushbu tibbiyotning yuqori darajada rivojlanganligini va amaliy tajriba bilan nazariyaning uyg‘unligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, uyg‘ur xalq tabobati bugungi kunda ham o‘zining tarixiy, ilmiy va madaniy ahamiyatini saqlab qolgan holda, zamonaviy tibbiyot uchun muhim manba va tadqiqot yo‘nalishi sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dabbs, J.A.
History of the Discovery and Exploration of Chinese Turkestan. — The Hague: Mouton, 1963.
2. Dillon, M.
Xinjiang: China’s Muslim Far Northwest. — New York: Routledge Press, 2004.
3. Ghayratjan, O.
Culture of the Ancient Tarim. — Urumqi: Xinjiang University Press, 2007.
4. Halmurat, U., Dubrovin, D., Nurmuhammat, A.
The Uyghur Medicine, the Modern Concept of Humoral Theory and Treatment. — St. Petersburg: Rhythm Press, 2010.
5. Iakynph (Bichurin).
Opisanie Zhungarii i Vostochnogo Turkestana v Drevnem i Nyneshnem Sostoyanii. — St. Petersburg, 1829.
6. Jiang, Y., Tu, P.
Analysis of chemical constituents in Cistanche species (Rou Cong Rong). — Journal of Ethnopharmacology, 2009.
7. Mair, V.H.
The Tarim Mummies: Ancient China and the Mystery of the Earliest Peoples from the West. — London: Thames & Hudson, 2000.
8. The Classic Books of Uyghur Medicine.
— Urumqi: Xinjiang People’s Health Publishing House, 2013.
9. Upur, H.
Greco-Arab-Uyghur Medicine. — New York: Acurpress, 2012.
10. Zeme, P.
Notes on Uyghur Medicine, especially on the Uyghur Siddhasāra tradition. — Asian Medicine, 2007, Vol. 3, pp. 308–322.